

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i> FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i> XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Соѳуѳ Паѳнов</i> КАМБАФАЛЛИК ВА УНИ ҚИСҚАРТИРИШ МУАММОЛАРИ	33-42
<i>Abdimov minov Oybek Bektemirovich</i> MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i> ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i> SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i> KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромович</i> ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжаниязов Элбек Сардорович</i> ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i> O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Абдурахманов Мухторали</i> ЎУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHIDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPTION MUNOSABATLAR PAYDO BO'lish SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i> O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdulkarimovna</i> BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i> IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i> MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i> СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i> БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO'K” SIFAT BELGISINING SEMANTIKA XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i> HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломовна Марьям</i> ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i> XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI	264-268
<i>Davronov Shexroz Abrorovich</i> OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i> NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i> К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i> O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'liqin qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i> INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i> ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i> XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i> LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i> O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'liqin o'g'li</i> INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Атаназарова Шохида Бахрамовна</i> РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna</i> ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i> SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i> ЛИТЕРАТУРНИЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i> ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoirra Shukurillayevna</i> ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Imomov Nurillo Fayzullayevich

TA'MINLOVCHI TO'LOV – MAJBURIYATLARNI TA'MINLASHNING

YANGI USULI SIFATIDA 407-414

Салаев Нодирбек Сапарбаевич

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ,

ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР 415-431

Ходжиев Юнус Мухитдинович

МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНING ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН

АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ 432-436

Сайдивалиева Хуршида

БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ

МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ

МАСАЛАЛАРИ 437-445

Muqimov Bobur

THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 446-451

Raimova Nargiza Doroyevna, To'uchiyeva Bahora Otabekovna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS 452-459

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ

ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 460-468

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich

UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO'LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING

AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI 469-478

Kubaeva Ismigul Farxod qizi

CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE 479-484

Юсупов Ўктамбой Абсаматович

ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ

КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 485-491

Баходирова Сабина Улугбек кизи

РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО

ПОВРЕЖДЕНИЯ 492-503

Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ

ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 504-508

Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o'g'li

O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI 509-520

To'uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL

NETWORKS 521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшпулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	620-526

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIY Tajribasini qo'llash bo'yicha mavjud ta'lim talablarining tasnifi yuzasidan tahlillar	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i> O'rta asrlar markaziy osiyo mutafakkirlarining cholg'ushunoslikka oid nazariyalari: Abu Nasr forobiyning musiqiy tadqiqotlari	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i> Jahon axborot resurslari orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i> ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i> МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i> ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i> TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i> MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024**Accepted:** 5 December 2024**Published:** 15 December 2024*Article / Original Paper***THE NATURE OF COMICALITY – THE CONCEPT OF SATIRE AND HUMOR****Mansurova Mohinur Akmal qizi**

Tashkent State Transport University

PhD student

E-mail: moxinurmansurova1998@gmail.com

Abstract. In order to express the evils of society, the difficulties of life, selfish officials and their actions through laughter, many writers look at comedy and consider it one of the important directions of literature. In the following article, the author analyzes humor as one of the means of showing positive and negative aspects of life in literature. The concept of humor and its nature are discussed, and satire and humor, which are its main types, are given special consideration.

Keywords: literature, comicality, comic, satire, humor.**HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI****Mansurova Mohinur Akmal qizi**

Toshkent davlat transport universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Jamiyat illatlarini, turmush qiyinchiliklarini, xudbin amaldorlar va ularning kirdikorlarini kulgu orqali ifodalash uchun ko'plab yozuvchilar hajviyaga nazar solishadi va uni adabiyotning muhim yo'nalishlaridan deb hisoblashadi. Quyidagi maqolada muallif hajviyotni adabiyotda hayotning ijobiy va yaramas tomonlarini ko'rsatishning vositalaridan biri sifatida tahlil qiladi. Hajviya tushunchasi va uning tabiati haqida so'z yuritiladi va uning asosiy turlaridan bo'lgan satira va yumorga alohida nazar solinadi.

Kalit so'zlar: umumadabiyot, hajviya, hajviyot, satira, yumor.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N38>

Kirish. Adabiyot ijtimoiy ongning mahsuli sifatida maydonga kelgandan beri ikki yo'nalish bilan rivojlanyapti. Biri hayotning ijobiy tomonlarini ulug'lashdan iborat bo'lsa, ikkinchisi hayotning yaramas tomonlarini fosh qilish – inkor qilishdan iboratdir. Qaysi bir shoir yoki yozuvchini olmang uning ijodida doim mana shu ikki yo'nalishni ko'ramiz. Shoir yo yozuvchi nimanidir ulug'laydi yo nimanidir qoralaydi. Biroq umumadabiyotning vazifasi bir: hayotning go'zal, inson uchun o'rnak bo'larlik tomonlarini ulug'lash, hayotning ijobiy tomonlarining mohiyatini jamiyat a'zolariga to'laroq ochib berish. Inkor qilish ham so'zsiz shu maqsadga bo'ysunadi. Faqat farqi shundaki, hayotning ijobiy tomonlarini ulug'lashda san'atkor o'z vazifasini bevosita amalga oshiradi, hayotning salbiy tomonlarini fosh qiluvchi san'atkorlar esa bu ishda bilvosita yo'llar bilan boradi.

Adabiyotlar tahlili. Ko'p asrlik boy va rang-barang adabiyotimiz tarixida "hajviyot" yo'nalishi alohida diqqatga sazovor. Bu yo'nalishda turli tarixiy sharoitlarda yashab ijod etgan ilg'or fikrli adiblarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, hayot va jamiyat haqidagi tushunchalari, konkret davrning muhim, yetakchi masalalariga munosabatlari nisbatan yaqqolroq va to'laroq ifodasini topgan, mehnatkash xalqning turmush ahvoli, orzu-istaklari, kurashi, intilishi ravshanroq tasvirlangan, xuddi shu yo'nalishda zulm va istibdod, haqsizlik va nash'asiz, mashaqqatli hayot, zo'ravonlik va o'zboshimchaliklar, inson sha'nining toptalishi ayovsiz qoralangan., urush-qirg'inlarning ayanchli oqibatlar, xalq mulki va mamlakat boyliklarining talon-taroj etilishi, son-sanoqsiz og'ir soliqlar hayotiy lavhalarga ishonarli tasvirlangan. Xuddi shu yo'nalishda hayot va jamiyatdagi yaramas illatlar g'azab va nafrat bilan ochib tashlangan, tekinxo'r tabaqalarning kirdikorlari, ular turmushidagi butun xaloyiq, reaksiya din ahlari faoliyatidagi qalbakilik, aldov, shaxslar tabiatidagi xudparastlik, manmanlik, buzuqlik, pastkashlik, xasislik, ochko'zlik kabi g'ayri insoniy belgilar badiiy so'z vositasida fosh qilinib, rad etilgan.

Hajviya turli janrlarda yozilishi mumkin. Masalan, «O'lik jonlar» (N.V.Gogol) hajviy roman shaklida, «Maysaraning ishi» (Hamza), «So'nggi nusxalar» (A.Qahhor) hajviy pyesa shaklida, «Yovuz niyatli kishilar» (A.Chexov), «Sudxo'ring o'limi» (S.Ayniy), «Qabrdan tovush» (A.Qahhor) hajviy hikoya shaklida, «To'yi Iqon bachcha» (Muqimiy), «Hajvi yikchi eshon» (Zavqiy) hajviy she'r- shaklida, «Bizning mulohazalarimiz» (A.Qahhor) hajviy felyeton shaklida yozilgan.

Natija va muhokama. Rus tilida *комик* deb tarjima qilinuvchi hajviya tushunchasi (*yunoncha komikos — kulgili, quvnoq*) — estetik kategoriya bo'lib, voqelikning qarama-qarshiliklarini aks ettiradi: xunuk va go'zal, ahamiyatsiz va yuksak, haqiqiy va ideal o'rtasidagi tafovut.

Komikning asosiy belgisi bu – kulgu. U ochiq ko'ngil, quvnoq shu bilan birga shafqatsiz, g'azabli, azoblanishga undaydigan ham bo'lishi mumkin. Hayotda biz ko'pincha insoniy g'urur, xudbinlik va jaholat ustidan kulmoqchi bo'lgan vaziyatlarga duch kelamiz. Yozuvchi hayotdagi bu hodisalarning barchasini kuzatadi va ularni badiiy haqiqatga o'tkazadi. Komik(hajviya) asarda yozuvchining ixtiyoriga qarab namoyon bo'ladi, ya'ni bu asarning qandaydir syujetning elementi, qahramon xarakteri, nutqining o'ziga xos xususiyatlari bo'lishi mumkin. Demak hajviya har qanday ijtimoiy yoki shaxsiy kamchiliklar yoki qarama-qarshiliklarni ta'kidlash uchun asarning bir qismi bo'la oladi.

Ko'pincha kulgili narsaning orqasida jiddiy, dramatik, yoki fojiali narsa yotadi. Masalan, rus yozuvchisi N.S.Leskovning "Chapaqay" asarida hunarmandlarning kulgili qiyofasi orqasida qayg'uli haqiqatlar yashiringan; iste'dodli va chinakam mehnatkash odamlarning hayoti hech qanday tashkil etilmagan, ular qashshoq va ularning hayoti katta davlat mashinasi tomonidan qadrlanmaydi.

Shu bilan birga, hajviy asarning xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan yana bir rolini ham unutmaslik kerak: hayotning o'limdan ustunligini ta'kidlash, hayot quvonchini, uning yangilanishini ifodalash. Masalan, N.V.Gogolning "Rojdestvodan oldingi tun" asarida o'quvchi shayton ustidan kuladi, Vakulaning masxaralanishi esa yorug'lik kuchlarining qora kuchlar ustidan g'alaba qozonishning belgisi sifatida qabul qilinadi.

Biz oldimizda qanday kulgi turganiga qarab -xushmuomala, yomon, ijtimoiy illatlarni masxara qiluvchi yoki boshqa kulgu sifatlariga qarab turli turlarga ajratishimiz mumkin.

Yu.Borev va L.I.Timofeyevlarning fikricha satira va yumorni hajviyaning asosiy turlaridan deb hisoblashadi. Bu tasnif G.N.Pospelov tomonidan ham amalga oshirilgan.

Satira juda Qadim zamonlardan oq xalq og'zaki ijodida va yozma badiiy adabiyotda mustahkam o'rin olgan. So'nggi davrlarda adabiyotning epos, lirika, drama singari turlari qatorida satirani ham alohida bir adabiy tur sifatida ko'rsatiladigan bo'lib qoldi. Aslida, bunday munosabat noto'g'ridir. Satira pafosdir, pafosning komizm turiga kiradi, ilgari Sharqda hajviya deb atalgan va yumorni ham o'z ichiga olgan. Satira va yumorning ajralishi demokratik adabiyotda ham sodir bo'ldi va shundan boshlab satira ham, yumor ham alohida janrlarga aylandi, lekin ular bir-biridan naf oladi. Ammo satira yo'qotishni, yumor esa tuzatishni nazarda tutadi.

Satira (*lotincha: satira — qurama*) — komiklik turi, tasvir obyektni ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko'rinishini o'zgartirib, oshirib, bo'rttirib, mubolag'a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko'pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali Satira obyektiga „ishlov“ beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan (yumor, hikoya va boshqalar) ham foydalanishi mumkin, biroq satira uchun salbiy tus berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi.[4]

Satirik an'analar Sharq xalqlari ijodida qadimdan mavjud. Jahon madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan va Sharq adabiyoti shuhratini keng yoygan asarlar dastlab folklorda "Ming bir kecha" zaminida, sanskritcha "Panchatantra", forsha xalq qissalari, turkumi, Nasriddin haqidagi turk va o'zbek latifalari asosida yaratilgan. Kitobiy (yozma adabiyotdagi) satiralar ham Sharqda ko'pdan mashhur. Uning g'oyalari xitoy novellalari, fors adabiyoti ruboiylari va hind qissalari motivlari bilan sug'orilgan. Rus adabiyotida N.V.Gogol, M.Ye. Saltikov-Shedrin va boshqalar satirani yuksak bosqichga ko'tardilar. O'zbek adabiyotida satiraning ilk namunalari dastlab xalq ijodida (terma va aytishuvlar, Nasriddin Afandi, Aldar ko'sa obrazlarida) yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Muqimiy, Zavqiylar satira janrida ijod qildilar.[3] Satiraning keyingi taraqqiyoti Hamza, Qodiriy, G'ozir Yunus, So'fizoda, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, N. Aminov, S. Siyoyev va boshqa nomi bilan bog'liq. Satira tasviriy san'atda ham qadimdan ma'lum. Qadimgi Rim, Xitoyda satirik terrakota haykallar, vazalarga satirik tasvirlar va boshqa ishlangan. Rassomlik san'ati (jumladan, grafika)da rivojlangan. F.Goyya, O.Domye, X.Bidstrup va boshqa rassomlar ijodi satira rivojida muhim rol o'ynagan. O'zbekistonda satira taraqqiyotiga Mushtum" jurnali, "Jangovar qalam", "O'zTAG oynasi" katta hissa qo'shgan.

V.G.Belinskiy satira haqida gapira turib shunday deb yozgan edi: "Satira kamchiliklarni, kishilarning zaif tomonlarini, qabohatlarini masxaralash emas, balki darg'azab hisning hammasi, energiyasi, oliyjanob ideal talabi asosida tug'ilgan g'azabning momaqaldirog'i va chaqmog'i bo'lishi kerak. Darhaqiqat, dunyoga dong'i ketgan ulug' satiriklar: N.V.Gogol, Saltikov-Shedrin, A.Ostrovskiy, A.P.Chexov kulgisi ma'lum bir individlar ustidan kulish emas, balki insonni zulmatga bog'lab qo'ygan ijtimoiy tuzum ustidan, hayotning olg'a siljishiga to'siq bo'lib turgan tartiblar ustidan achchiq va zaharxanda kulgi edi. Bu kulgilar inson zotini erkin, ozod, teng haq-huquqli ko'rish ideali asosida buyuk san'atkorlar fikri isyon, ular qalbida momaqaldiroq guldurashi, dardli yuraklaridan chaqmoqdek otilib chiqqan zaharxanda kulgi edi.

Hajviy turdagi asarlarning ikkinchi guruhini yumor tashkil etadi. Yumorda hayotdagi juz'iy kamchiliklar yengil kulgi ostiga olinadi. Ayrim hollarda yumorda kulgi vositasida hayot go'zalliklari tasdiqlanishi ham mumkin. Bunday yumorning yorqin namunasi sifatida Abdulla Qahhorning "Kampirlar sim qoqdi" nomli hikoyasini eslash o'rinli bo'ladi.

Yumor (*inglizcha humor-biror narsaning kulgili xususiyati yoki ajralmas qismi*)- hazil, kulgu, qiziqarli gap-so'z yoki voqealarni ifodalash uchun ishlatiladi. Yumor insonlarga zavq bag'ishlaydi va ko'pincha ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun ishlatiladi. Yumor haqida yozuvchilar va mutafakkirlar ko'plab fikrlar bildirgan: «Insonning haqiqiy tabiatini ochib berish uchun hazil juda muhimdir. Hazil bilan biz har doim haqiqatni aytamiz, hatto uni yashirmoqchi bo'lsak ham deydi Mark Tven. Oskar Uayld esa "Yumor – bu insoniyatning jiddiylilikdan himoya vositasidir." Desa, Jorj Bernard Shou «Yumor – bu odamlarning jiddiy muammolarni yumoristik yo'l bilan tushuntirishga bo'lgan urinishidir deydi.[8] Bu fikrlar yumorning insoniyat uchun qanchalik muhim va kerakli ekanligini ko'rsatadi. Yumor nafaqat zavq va kulgu beradi, balki hayotning qiyin va jiddiy tomonlarini yengillatishga yordam beradi.

O'zbek adabiyotida yumoristik asarlar muhim o'rin tutadi. Bu asarlar orqali mualliflar jamiyatning muhim muammolarini kulgili va satirik yo'llar bilan ochib beradi. Jumladan, Abdulla Qahhorning "Sinchalak» hikoyasi" oddiy dehqonning kundalik hayotidagi kulgili va qiziqarli voqealarni tasvirlaydi. Masalan, hikoyada bosh qahramonning o'z shaxsiy hayotidagi kulgili holatlar va uni boshidan kechirgan qiyinchiliklar hazil bilan ifodalanadi; Erkin Vohidovning "Toshkent hikoyalari"da Toshkent shahridagi hayotning turli jihatlarini qiziqarli va yumoristik tarzda tasvirlangan. Masalan, "O'rtoq Ismoil" hikoyasida shahar hayotidagi kichik kulgili voqealar va odamlarning kulgili qiliqlari tasvirlanadi. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi esa oddiy xalq hayoti va ularning kulgili voqealari tasvirlangan. Masalan, ba'zi qahramonlarning qiziqarli dialoglari va kulgili vaziyatlarga tushishi o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. Bu misollar o'zbek adabiyotida yumorning qanday ifodalanishini ko'rsatadi. Yumor nafaqat zavq bag'ishlaydi, balki o'quvchini o'ylantiradi va jamiyatning turli muammolarini yengilroq ko'rinishda tushunishga yordam beradi.

Yumorning boshqa janrlardan farqi shundaki uning "ma'lum bir sotsial hodisani targ'ib qilmas"ligida, "insonlarni g'azabli ravishda masxara qilmas"ligida.

Xulosa. Hajviya -badiiy adabiyot turlaridan biri bo'lib o'tmishda Sharq xalqlari, shu jumladan O'zbek adabiyotida, asosan, she'riyat va folklorda mustaqil janr sifatida rivojlangan. Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo'ladi. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi.

Uning asosiy turlari bo'lgan satira va yumor ham o'z o'rnida jamiyatning turli illatlarini kulgu ostiga oladi. Satira katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli qadim zamonlardan tortib hozirgi kunimizgacha rivojlanib keladi. Taraqqiyot davomida uning ko'plab janrlari va shakllari paydo bo'lgan. U kichik she'r yoki hikoya tarzida ham, katta roman, povest yoki poema shaklida ham, ertak yoki pyesa ko'rinishida ham yuzaga kelishi mumkin. "Yumor orqali jamiyat o'zining hamma a'zolariga tarixan tekshirib ko'rilgan axloq normalarini eslatib turadi, u orqali jamiyat har qanday umum qoidadan chekinishlarga qarshi kurashadi, zararli o'tlarni hali unib chiqmagan paytida qirqib tashlaydi, satira aktiv davolash, yumor kasalning oldini olish ..." [6]

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdug'afurov A., Navoiy ijodida satira -O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent 1972
2. Karimov N., Adabiyot nazariyasi- O'qituvchi NMU 2005

3. Qo'shjonov M., Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor -O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1973
4. Erkin Xudoyberdiyev "Adabiyotshunoslikka kirish" "Sharq " nashryoti Toshkent - 2008.
5. Xalliyeva G., QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK -Toshkent "Akademnashr" 2020
6. Вулис А., Советский сатирический роман, -М., «Наука», 1965,стр.10
7. Tursunovich R. I. History of the Study of Folklore Ethnografisms //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – Т. 18. – С. 199-202.
8. Rustamov Ilxom Tursunovichning "Kichik janr matnlarning pragmatik kognitiv va milliy madaniy mohiyati (O'zbek va ingliz latifalari misolida)". diss.avtoref. 2019-yil.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).